

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

JALOLOVA MOHIGUL ODILJON QIZI

**HARBIYLAR OILASIDA ROLLAR TAQSIMOTINING IJTIMOYIY-
PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT - 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Jalolova Mohigul Odiljon qizi

Harbiylar oilasida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik o'ziga
xosligi..... 3

Жалолова Мохигул Одилжон кизи

Социально-психологическая специфика распределения ролей в семьях
военнослужащих..... 23

Jalolova Mohigul Odiljon qizi

The socio-psychological specifics of the distribution of roles in military
families..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

JALOLOVA MOHIGUL ODILJON QIZI

**HARBIYLAR OILASIDA ROLLAR TAQSIMOTINING IJTIMOYIY-
PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT - 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida tomonidan B2023.4.PhD/P691 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimova Vasila Mamanosirovna,
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Qodirov Umarali Do'stqobilovich,
psixologiya fanlari doktori, professor,

Ummatova Sitora Shavkatulloyevna,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida ijtimoiy munosabatlardagi global o'zgarishlar oila instituti, uning mavqei, tarkibi, tuzilishi, funksiyalari va faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Er-xotinlarning o'z oilasidagi rollar taqsimoti va unga aloqador ijtimoiy tasavvurlarning mazmuni muhim bo'lib, oilaviy rollarning qanchalik reallikka yaqin bo'lishi, muvofiqligi oilaning mustahkamligiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv turli xil oilalar qatorida harbiy xizmatchilarning oilasiga ham taalluqlidir. «So'nggi o'n yillikda yuz bergan harbiy mojarolar harbiy xizmatchilar hamda ularning oilalarida stress va zo'riqishni kuchaytirgan. Ushbu davrda harbiy xizmatchilar o'rtasida bosh miya chayqalishi, depressiya, jarohatdan keyingi stress va suitsid ko'rsatkichlari ko'paygan. Ko'plab oilalar bu kabi qiyinchiliklarni yengib o'tishga muvaffaq bo'lishgan, ammo ayrimlariga harbiy hayot bilan bog'liq stressni yengish uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlash zarurati tug'ilgan»¹. Bu borada oilaviy munosabatlar va nikohdan qoniqqanlik sifatining yomonlashuvi natijasida oila va oilaviy munosabatlari, oila an'analari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari keskin o'zgarayotganligi bois, harbiylar oilasida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik jihatlarini oila manfaatlari kafolatlarini ta'minlashga yo'naltirish, yangi mazmundagi institutsional asoslarini takomillashtirish dolzarb bo'lib, mazkur fenomenni ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon oliy ta'lim va ilmiy-amaliy tadqiqot markazlarida oila-nikoh an'analari, oila qadriyatlari yoshlarni oilaviy hayotga ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash, oilani mustahkamlovchi omillarni psixologik diagnostikasi orqali zarur taklif va tavsiyalarni yaratish bilan bog'liq muammolar ilmiy tadqiq etib borilmoqda. Bu borada oiladagi vazifalar – rollar taqsimoti, xususan, er-xotin munosabatlarida oilaviy qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy, hududiy, ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish, zamonga xos oilaviy qarashlar va tasavvurlarning oila mustahkamligi va baxtli bo'lishini ta'minlash asosida psixologik tavsifnomasini ishlab chiqish, yoshlarda oilaga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish hamda oilani millat va davlat kelajagi uchun zarur qadriyat sifatida saqlab qolish uchun daxldorlik hissini tarkib toptirish, yoshlarni oila manfaatlarini himoya qilishga adekvat yondashadigan shaxs etib tayyorlab borish zarurati masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda harbiy xizmatchilar oilalari bilan ishlash, ularning oilalarini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning oilalarida sog'lom muhitni qaror toptirish, oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-psixologik, huquqiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga alohida e'tibor qaratilib, huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi². Respublikamizda harbiy oila institutining xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash tadbirlarida «harbiylar oilasini

¹ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC5158214>.

² O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.10.2022 yildagi 590-son.

«xonadonbay» o'rganishlar natijasida oilalarda sog'lom muhitni barqarorlashtirish», «yosh harbiy oilalar o'rtasida sodir etilayotgan ajrimlarni oldini olish...», «harbiy xizmatchilar oila a'zolarining reproduktiv salomatligini mustahkamlash va tibbiy madaniyatini oshirish» harbiy qism va muassasalarda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga bag'ishlangan «Mustahkam oilani shakllantirishda ota-onaning mas'uliyati», «Farzandning ota-ona oldidagi burchi», «Oilaviy hayot saboqlari» mavzularida uchrashuv, seminar va davra suhbatlari o'tkazish» strategiyalariga asoslanib, harbiy oilalarda sog'lom va obod turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2023-yil 13-martdagi PF-34-son «Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2020-yil 31-dekabrda 820-son «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlar hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy shakllantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan D.U.Abdullayeva, F.A.Akramova, M.G.Davletshin, M.X.Fayziyeva, G'.Z.Ikmatullayev, M.T.Isakova, V.M.Karimova, R.Samarov, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, S.Sh.Ummatova, I.O.Xaydarov, G.T.Yadgarova, Sh.Zoxidov, N.G'oiipova, O'.B.Shamsiyev, G.B.Shoumarov va boshqalar oilaning jamiyatdagi o'rni, oilada munosabatlarni muvofiqlashtirish, oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xosligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va o'ziga xos jihatlarni ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.P.Akutina; G.F.Biktagirova, R.A.Valeyeva; A.Ya.Varga, T.V.Gushchina; N.I.Olifirovich, T.A.Zinkevich-Kuzemkina, T.F.Velenta, A.B.Xolmogorova va boshqalar oilaviy tizimlar va qadriyatlar, oilaviy inqirozlarni, Yu.Ye.Alyoshina, A.N.Volokova, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskaya, Z.Janazarova, O.A.Karabanova; V.V.Stolin; E.G.Eydemiller, V.V.Yustiskis va boshqalar zamonaviy oila modeli, oilaviy muloqot va turmushdan qoniqishni, I.I.Andryushin, V.V.Forsova, A.A.Kochubey, O.M.Lugovaya, N.A.Miloradov, A.E.Puzikov, F.D.Shavlov va boshqalar harbiy xizmatchilar va ularning oilalari alohida ijtimoiy guruh sifatida, harbiy

xizmatchilarning ijtimoiy muammolari, ofitserlar oilasidagi psixologik omillarning ijtimoiy-psixologik asoslari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar.

Xorijiy davlatlar pedagog-psixologlaridan A.Adams, W.Berg, L.Bumpass, S.T.Billingsley, R.C.Bean, E.T.Burgess, D.E.Delis, Z.Freyd, D.Jodelet, M.Kampbell, K.X.Kaufman, G.E.Kraig, J.Quaet, J.Lofas, T.C.Martin, T.Parsons, C.Rogers, M.M.Sveaney, K.M.Schafer, L.G.Terman, P.D.Vollin, L.Villiam, F.Zimbardo, R.Chaldini va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoshlarni oilaga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik muammolari, tasavvurlari, shuningdek, L.Knobloks, V.Stander, S.Vilson kabi olimlarning harbiy oilalarning inqiroz davridagi munosabatlarining o'ziga xos jihatlari, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi shaxslararo jinsiy tajovuzkorlik va oiladagi zo'ravonlik modellari, xizmat joyining o'zgarishi (rotatsiya) jarayonida harbiy oilalar, harbiy xizmatchilar farzandlarining munosabatlaridagi o'zgarishlar sikli, oila a'zolarining bir-birini qo'llab-quvvatlashi masalalariga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlar bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170930223 – raqamli «Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020-y.y.).

Tadqiqotning maqsadi: harbiylar oilasida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini aniqlash va zarur amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

harbiy va harbiy bo'lmagan oila vakillarida oilaviy rollar taqsimoti to'g'risidagi tassavvurlarini aniqlash;

harbiylar oilasida er-xotin qarashlarining umumiyligida oilaviy rollar tizimidagi «men» ustanovkalaridan ko'ra «biz» tuyg'usining ko'proq namoyon bo'lishini harbiy bo'lmagan oilalarga nisbatan ustivorroq ekanligini isbotlash;

harbiy va harbiy bo'lmagan oilalardagi er-xotinlarning ijtimoiy rollari, ijtimoiy kutishlari va da'vogarliklarining o'ziga xosligini ilmiy tadqiq etish;

harbiy oilalardagi erkak va ayollarning harbiy muhit ta'sirida yuzaga keladigan gender ustanovkalari ta'sirini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona va Andijon viloyatlaridagi harbiy qismlarda faoliyat olib boruvchi hamda istiqomat qiluvchi harbiy xizmatchilardan iborat 98 nafar oilasi (jami er-xotinlar – 196 nafar), Farg'ona va Andijon viloyati shahar va tumanlarda yashovchi harbiy bo'lmagan 94 nafar oilasi (jami er-xotinlar – 188 nafar) tadqiqotga jalb qilingan bo'lib, respondentlarning umumiy soni 384 nafarni tashkil etdi.

Tadqiqotning predmetini harbiylar oilasida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlaridan, Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayalarning «Oilada rollar taqsimoti» metodikasi, A.N.Volkovanning «Oiladagi rollar: kutuvlar va da'volar» test-metodikasi,

S.Bemning «Gender identifikatsiya» testi, hammualliflikdagi «Oilalarda rollar taqsimoti haqidagi ijtimoiy tasavvurlar» so‘rovnomasidan (V.M.Karimova; M.O.Jalolova) foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tadqiqotda harbiy va harbiy bo‘lmagan oila vakillarida oilaviy rollar taqsimoti to‘g‘risidagi tasavvurlarining o‘ziga xosligi hamda harbiy va harbiy bo‘lmagan oilalardagi rollarining taqsimlanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi dalillangan;

harbiylar oilasida er-xotin qarashlarining umumiyligida muayyan integratsion bog‘liqlikning mavjudligi, oilaviy rollar tizimida «men» ustanovkalaridan ko‘ra, umumiyligni anglab yetish, «biz» tuyg‘usining ko‘proq namoyon bo‘lishi harbiy bo‘lmagan oilalarga nisbatan ustivorroq ekanligi isbotlangan;

xarbiy erkaklarning oiladagi ijtimoiy rollardagi kutuvlari ayollarga nisbatan yuqoriligi, ammo shunday bo‘lsada ijtimoiy rollardagi o‘zaro moslik harbiy oilalarda harbiy bo‘lmagan oilalarga nisbatan barqarorligi asoslangan;

harbiy hamda harbiy bo‘lmagan oila vakillarida gender jihatlari o‘rganilib, har ikki oila erkak respondentlarda maskulinlik sifatleri androgenlik sifatleriga qaraganda past darajada ekanligi, ayol respondentlarda esa femininlik sifatleriga nisbatan anrogenlik baland ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

harbiy oilalardagi oilaviy munosabatlar, oiladagi rollar taqsimotining o‘ziga xos xususiyatlari va uni oila mustahkamligiga ta‘sirining bog‘liqligini aniqlashga oid mualliflik so‘rovnomasi ishlab chiqilgan va aprobatsiya qilingan;

harbiy oilalarda harbiy muhit ta‘sirida er-xotin munosabatlarida rollarni adekvat qabul qilish, o‘zaro kutuvlar va da‘volar kabi ijtimoiy-psixologik komponentlar va harbiy bo‘lmagan oila vakillaridan oila haqidagi tasavvurlarining farqli o‘ziga xosligi aniqlanib, oila psixologlari uchun amaliy tavsiyalar majmuasi taqdim etilgan;

tadqiqot metodikalari va xulosalariga ko‘ra, amaliy psixologlar, harbiy psixologlar, harbiy sohada ishlovchi pedagog-tarbiyachilar uchun psixodiagnostik va psixokorreksion dasturlar ishlab chiqilib, qo‘llashga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirishlarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, olingan empirik miqdoriy ko‘rsatkishlarning matematik statistikaning ishonshli usullari yordamida tahlil qilingani; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosida e‘tirof etilgan metodikalar vositasida o‘rganilgani, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilgani va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma‘lumotlarni qayta ishlash dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani va shu asosda psixologik interpretatsiya qilingani, xulosa, taklif, tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bakalavr va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga doir oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda, «Ijtimoiy psixologiya», «Oila psixologiyasi», «Oilaviy munosabatlar psixologiyasi» «Psixologik maslahat va psixokorreksiya» fanlarini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi mumkinligi, o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalari va xulosalaridan amaliy psixologlar, pedagoglar va harbiylar, harbiy sohada ishlovchi psixolog va profilaktika xodimlari uchun psixodiagnostik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish, oilaviy munosabatlarni va rollarni samarali tashkil etish usullarini ishlab chiqish mumkinligida ko'rinadi. Olingan ma'lumotlardan oilalarda rollar taqsimotini adekvat yo'naltirish, ularning oilaviy faoliyatini shakllantirish yuzasidan seminar-treninglar tashkil etuvchi mutaxassislar, amaliyotchi psixologlar faoliyatida hamda pedagogik psixologiya va ijtimoiy psixologiya fanlaridan darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Harbiylar oilasida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

harbiy va harbiy bo'lmagan oilalardagi oilaviy munosabatlar, oiladagi rollar taqsimotining o'ziga xos xususiyatlari va uni oila mustahkamligiga ta'sirining bog'liqligini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan mualliflik IPS ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv ilmiy markazining 2024-yil 7-iyundagi PM – 15-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» va «Oila psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 7-iyundagi PM – 15-a sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quv markazida psixologlarga yo'naltirilgan psixologik xizmat samaradorligi ta'minlangan;

harbiy oilalarda harbiy muhit ta'sirida er-xotin munosabatlarida rollarni o'ziga xos qabul qilish, o'zaro kutuvlar va da'volar kabi ijtimoiy-psixologik komponentlar haqidagi ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-iyundagi PM – 15-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» va «Oila psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 7-iyundagi PM – 15-a sonli ma'lumotnomasi). Natijada oila uchun tayyorlanadigan maxsus amaliyotchi psixologlarda psixologik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ko'nikmalarini oshirishga erishilgan;

harbiy va harbiy bo'lmagan oila vakillarida oilaviy rollar taqsimoti to'g'risidagi o'ziga xos tassavvurlari hamda harbiy va harbiy bo'lmagan oilalardagi rollarining taqsimlanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi haqidagi ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-iyundagi PM – 15-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» va «Oila psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 7-iyundagi PM – 15-a sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ma'lumotlardan amaliy

psixologlar, pedagoglar va harbiy psixologlar, harbiy sohada ishlovchi pedagog-tarbiyachilar uchun psixodiagnostik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish tavsiya etilgan;

harbiy oilalardagi erkak va ayollarning harbiy muhit ta'sirining gender ustanovkalariga o'ziga xos ta'siri hamda harbiy bo'lmagan oilalarning gender identiklikning differensial farqlarning namoyon bo'lishi dalillanganligi haqidagi ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-iyundagi PM – 15-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» va «Oila psixologiyasi» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 7-iyundagi PM – 15-a sonli ma'lumotnomasi). Natijada oila psixologlari uchun amaliy tavsiyalar paketi taqdim etilgan hamda oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish samaradorligining oshishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 11 ta respublika konferensiya va jurnallarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (3 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnalda) maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining hajmi ilovalardan tashqari 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti aniqlashtirilgan, ilmiy ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ishonchlilik, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Ijtimoiy psixologiyada oilada rollar taqsimoti muammosining o'rganilishi**» deb nomlangan. Mazkur bobning «Sharq allomalarining oila va oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlari» deb nomlangan birinchi paragrafida jamiyat osoyishtaligi, rivojlanishi, taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi mezonlar orasida oila muhitining o'rni, oila barqarorligini saqlash, oilaviy turmush qoidalari, shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar haqidagi g'oyalar zardushtiylikning qadimgi manbai «Avesto», islom dinining muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni Karim, Hadis, buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin

Kubro tariqatlari, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy asarlari bayon etilgan.

Birinchi bobning «Xorijda va rossiyalik olimlar tomonidan oilada rollar taqsimoti muammolarining o'rganilganligi» va «O'zbekistonda oilaviy munosabatlar doirsida rollar taqsimoti masalasining o'rganilganlik holati» deb nomlangan paragraflarida xorij hamda rossiyalik olimlarning oila muammosi bilan shug'ullangan tadqiqot ishlari, shuningdek mamlakatimiz psixolog olimlarning izlanishlari yoritilgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan M.Agafonova, N.A.Bernshteyn, V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.Ya.Varga, A.Valiyeva, D.Vidra, A.G.Volkov, Z.Janazarova, M.Kabakova, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, S.N.Nartova-Bochaver, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko, G.T.Xomentauskas, A.A.Shutsenberger, Ch.Shakeyeva va boshqalar; N.A.Miloradov, V.V.Forsova, F.D.Shavlov, I.I.Andryushin, A.A.Kochubey, O.M.Lugovaya, A.E.Puzikov oila, oilanikoh, oilada taqsimlangan rollar, oila a'zolarining mavqei, shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oilalari ijtimoiy muammolari, harbiy xizmatchilar oilasining o'ziga xosligi, oilaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish muammolariga e'tibor qaratganlar. Oila barqarorligi, nikoh-oila munosabatlarida rollar taqsimotining namoyon bo'lishi borasida O'zbekistonlik psixologlardan D.U.Abdullayeva, F.A.Akramova, M.G.Davletshin, M.X.Fayziyeva, G'.Z.Ikmatullayev, M.T.Isakova, V.M.Karimova, R.Samarov, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, M.Umarova, I.O.Xaydarov, G.T.Yadgarova, Sh.Zoxidov, N.G'oipova, O'.B.Shamsiyev, G.B.Shoumarov va boshqalarning mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari keltirilgan.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Harbiylar oilasida rollar taqsimoti muammosi o'rganilishining metodologik asoslari**» deb nomlanib, mazkur bobda tadqiqotda qo'llanilgan metodikalarning umumiy tavsifi, o'tkazilish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash bosqichlari o'z ichiga oladi.

Dissertatsiya ikkinchi bobining «Tadqiqotning obyekti, metodologik tamoyillari va qo'llanilgan metodikalar tavsifi» deb nomlangan birinchi paragrafida oilaviy munosabatlar diagnostikasi oilaviy muammolarni yechishda samarali yo'l va usullarni aniqlashga yordam beradigan metodikalar tahlili yoritilgan. Bunda ko'pincha oilaning ichki muhitini, muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi yashirin psixologik sabab va qonuniyatlarni ochishga imkon beruvchi test metodikalardan foydalanilgan. Bugungi kunda psixologiyada nikoh-oila munosabatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator metodikalar mavjuddir. Shunday metodikalardan Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman hamda Ye.M.Dubovskayaning «Oilada rollar taqsimoti» metodikasi, A.N.Volkovanning «Oiladagi rollar: kutuvlar va da'volar» test-metodikasi, S.Bemning «Gender identifikatsiya» testlari orqali oila va oilaviy munosabatlar to'g'risida, bir qator oilaviy qadriyatlar, er-xotinning ushbu qadriyatlar tizimiga munosabati, ya'ni ularni amalga oshirishdagi da'volari va turmush o'rtog'idan kutishi darajalarni aniqlash mumkin.

Psixologik tadqiqotlar davomida asosiy vazifalardan biri ijtimoiy psixologik so'rovnomalar(IPS)ni mustaqil ishlab chiqish va o'tkazishdir. Shu sababli mualliflik ishlanmasi asosida «Oilalarda rollar taqsimoti haqidagi ijtimoiy tasavvurlar» nomli

ijtimoiy-psixologik so'rovnoma ishlab chiqdik. So'rovnomadan olgan natijalar «Oddiy oilalar va harbiy oilalar misolida oiladagi er-xotin rollari taqsimoti to'g'risidagi tasavvurlarning qiyosiy tahlili» va «Oiladagi rollar taqsimotining shaxslararo munosabatlarga ta'sirini o'rganish tahlili» deb nomlangan paragraflarida yoritilgan.

Ilmiy tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ma'lumotlar ijtimoiy negizini boyitishga, zarur amaliy ma'lumotlarni olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy psixologik so'rovnoma ishlab chiqdik. Ijtimoiy psixologik so'rovnomamizning kirish qismi – obyektning shaxsini aniqlashga qaratilgan savollar va 17 ta – oilada er-xotin munosabatlari, oiladagi rollar taqsimoti haqida ijtimoiy tasavvurlarni aniqlashga qaratilgan test-anketa savollardan iborat. Ijtimoiy psixologik so'rovnomaning maqsadi: oilada er-xotin munosabatlari va oiladagi rollar taqsimotini aniqlashdan iborat. «Oilalarda rollar taqsimoti haqidagi ijtimoiy tasavvurlar» so'rovnomaning «Oilada rollar taqsimoti haqida tushunchaga egamisiz?» savoliga harbiy hamda harbiy bo'lmagan erkak sinaluvchilar bergan javoblar 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. «Oilada rollar taqsimoti haqida tushunchaga egamisiz?» savoliga harbiy(n=98) va harbiy bo'lmagan(n=94) erkak respondentlar natijalari

Respondentlardan «Oilalarda rollar taqsimoti haqidagi ijtimoiy tasavvurlar» so'rovnomamizdan «Oilada rollar taqsimoti» haqida tushunchaga egamisiz? (1-rasm) deb so'ralganda, harbiy sinaluvchilar javoblarini tahlil qiladigan bo'lsak, «rol» tushunchasi, oilada er-xotin munosabatlarida o'zaro ma'lum bir vazifalar bajarilishi, oldidagi mas'uliyatdan sinaluvchilarning aksar qismi xabardor. Inkori va «qisman» javoblarini belgilagan respondentlar «rol» tushunchasini termin sifatida anglamaganliklari sabab bo'lishi mumkin.

Respondentlarimizning aksar qismi muayyan oilaviy hayot tajribasiga ega bo'lgan, o'rta yosh oilalar bo'lib (39,7%), «Oilangizdagi o'zaro munosabat yaxshimi?» degan savolga inkori javobini belgilamaganlar, ammo oiladagi o'zaro munosabat yaxshiligini tasdiqlovchi ovoz ozchilik tomondan (1,8%) belgilangan, ikkilanib «qisman» (98,2%) deb belgilangan natijalardan shuni xulosalash mumkinki,

demak «rol» tushunchasini anglash va uni amalda bajarish o'rtasida bog'liqlik uzulgan. Oiladagi rollarni va rolga xos vazifalarni bajarish juftliklarda kutilganidek ideal darajada emas, bu esa oiladagi o'zaro munosabatlarga ta'siri borligini ko'rishimiz mumkin.

2-rasmda «Oilangizda rollar taqsimoti sizni qoniqtiradimi» savolimizga sinaluvchi erkak respondentlarning ko'rsatkichlari keltirilgan.




2-rasm «Oilangizda rollar taqsimoti sizni qoniqtiradimi» savoliga erkak respondentlar natijalari (harbiy erkaklar n=98, harbiy bo'lmagan erkaklar n=94).

Mazkur ko'rsatkichlardan anglash mumkinki, harbiy erkaklar harbiy bo'lmagan erkaklardan ko'ra ko'proq tasdiq javobini belgilagan bo'lsalarda, xuddi shu savolga harbiy oila ayollarining javoblari («ha» – 70,5%, «yo'q» – 7%, «qisman» – 22,5%) turmush o'rtoqlaridan farqli ekanligiga amin bo'ldik. Natijalardan shuni xulosalash mumkinki, oiladagi rolni adekvat qabul qilib, amalda bajarish va turmush o'rtog'ining rollarni bajarishidan qoniqish darajasi harbiy erkaklarda yuqori. Bunga sabab, harbiy erkaklar doim avtoritar statusni saqlaganliklari, oilaviy qadriyatlar ko'proq erkak (oilada boshi) tomondan shakllantirilganligi ko'rishimiz mumkin. Harbiy oila ayollari turmush o'rtoqlaridan farqli ravishda, inkor javoblari yuqoriligidan shuni xulosa qilish mumkinki, rollar taqsimoti va oiladagi yuklatilgan majburiyatlar ularning e'tiroziga sabab bo'lar ekan, bu norozilik harbiy oila ayolining aksar qismi uy bekalari (67,4%) ekanligi va buning natijasida har tomonlama turmush o'rtog'i (er)iga tobeligini, qolaversa oilada harbiy erkaklarning kasbiy faoliyati sabab ko'pincha uy-ro'zg'or, maishiy-texnik ishlar ayol zimmasiga yuklatilyotgani sabab bo'lishi mumkin. Harbiy bo'lmagan erkaklar natijalarini izohlaydigan bo'lsak, harbiy bo'lmagan oila ayollarning oliy ma'lumotlilik yuqoriligi (86%), iqtisodiy-siyosiy, huquqiy onglilikda savodxonligi, oiladagi rollar taqsimotida teng xuquqlilikni da'vo

qilishlari va natijada vazifalar taqsimotida ham erkaklarni faol bo'lishga undashlari bilan xarakterlanadi.

«Oilalarda rollar taqsimoti haqidagi ijtimoiy tasavvurlar» so'rovnomaning yana bir aniqlashtiruvchi savollaridan «Turmush o'rtog'ingiz oilada qayday ishlarda sizga ko'mak berishlarini istardingiz?» savolimiz ochiq savol bo'lib, eng ko'p takrorlangan javoblar 3-rasmda ko'rsatilgan.



3-rasm. «Turmush o'rtog'ingiz oilada qayday ishlarda sizga ko'mak berishlarini istardingiz?» savoliga harbiy erkak respondentlar (n=98) ning eng ko'p takrorlangan javob natijalari (% da).

«Turmush o'rtog'ingiz oilada qayday ishlarda sizga ko'mak berishlarini istardingiz?» savolimizga harbiy erkaklar ko'rsatkichlarining namoyon bo'lishi bo'yicha farqlarning umumiy sharhiga to'xtalamiz. Bunda, eng yuqori ko'rsatkich oilada hissiy qo'llab-quvvatlash omili turadi. Bunga sabab harbiylar o'z turar joylaridan, yaqin qon-qarindoshlaridan uzoqdaligi va natijada er-xotinning emotsional bir-birlariga suyanib qolishlari, qo'llab-quvvatlashda harbiy erkaklar ko'proq ayollardan kutishlariga sabab bo'ladi. Qolaversa, kasbiy-faoliyatidagi jangovar shaylik, jismoniy mashqlar va zo'riqishlar, harbiy kasbiy muhitdagi kuchli tartib va bosim stress holatlariga olib keladi, shu o'rinda turmush o'rtog'ining ruhiy qo'llab-quvvatlashi harbiy erkak uchun muhim. Ba'zi bir harbiy oilalarda ma'lum bir sababga ko'ra (yangi xizmat joyiga ko'chishi va sharoit omili, ayolining homladorligi va uning doimiy kuzatuvda turishi istagi, farzandlarning ta'lim olishlari, oilaning moddiy ta'minotini tejash yoki yagona boquvchi ekanligi) harbiylarning oila a'zolari ota-onalari bilan birga turadilar. Harbiy erkaklar ko'p vaqtlarini oiladan tashqarida

mehnat faoliyatida bo'lishi, qolaversa, milliy mentalitetimizdan kelib chiqib, o'g'il farzand ota-onaga g'amxo'rlik qilishi, parvarish qilishi lozim. Shu o'rinda o'zi to'ldira olmagan mehr-muhabatni ayoli orqali to'ldirish istagi ham harbiylar oilasida o'ziga xoslikni namoyon etadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ijtimoiy psixologik so'rovnoma orqali «Oilalarda rollar taqsimoti haqidagi ijtimoiy tasavvurlar» bo'yicha har ikki oila vakillarining oiladagi rollar haqidagi tasavvurlari tarkibida oila-nikoh munosabatlari muayyan ma'noda o'zgacha mazmunda shakllangan bo'lib, bu ijtimoiy-psixologik xususiyatlar oilaning ijtimoiy maqomiga, muhitiga, oila a'zolarining tarkibiga bevosita bog'liqdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Harbiylar oilasidagi rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini o'rganish natijalari**» deb nomlanib, mazkur bobda harbiylar hamda harbiy bo'lmagan oilalarda rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligi metodikalar orqali aniqlab olindi. Tadqiqotning ushbu bosqichida 3 ta paragraf bo'lib, birinchi paragraf Yu.E.Alyoshina, L.Ya.Gozman, hamda Ye.M.Dubovskayaning «Oilada rollar taqsimoti» metodikasidan olingan natijalar tahlili yoritilgan.

1-jadval

Harbiy bo'lgan va harbiy bo'lmagan oila vakillari (erkaklar)larining «Oiladagi rollar taqsimoti» metodikasi solishtirma qiymatlari (Styudent t – mezoni asosida)

№	Shkalalar nomi	Harbiy erkaklar (n=98)		Harbiy bo'lmagan erkaklar (n=94)		t	Ishonch qiymat p
		O'rtacha qiymat	Standart og'ish	O'rtacha qiymat	Standart og'ish		
1	Farzandlarning tarbiyasi	2,47	,52	2,31	,521	2,198	,029*
2	Oilada hissiy muhit	2,39	,58	2,19	,344	1,932	,036*
3	Oilaning moddiy ta'minoti	2,25	,65	2,19	,61	,667	,506
4	Bo'sh vaqtni tashkil etish	1,98	,53	1,94	,55	,420	,675
5	Oilada begi va bekasi	2,26	,51	1,89	,52	1,916	,027*
6	Jinsiy munosabatdagi sheriklik	2,44	,51	1,99	,517	2,121	,031*
7	Oilada submadaniyat tashkilotchisi	1,86	,52	1,89	,55	-,428	,669

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01; *** p≤0,001

Harbiylar oilasida oiladagi munosabatlarni o'rganish maqsadida o'tkazgan «Oiladagi rollar taqsimoti» metodikasi natijasiga ko'ra, oiladagi vazifalar va rollar taqsimoti oddiy oilalarga nisbatan farqli natijalar bilan ajralib turdi. Oilada moddiy ta'minotchi – erkak zimmasida (ayollarning aksar qismi uy bekasi), ammo farzand tarbiyasi, oilaviy submadaniyat tashkilotchisi, qarindoshlararo munosabatlarga mas'ullik, oiladagi katta-kichik harajatlarni qilish ayollar zimmasida ekanligi aniqlandi. Qolaversa, tadqiqot ishida erkak sinaluvchilarning oiladagi vazifalar taqsimotiga ko'ra harbiy va harbiy bo'lmagan oilalar o'rtasidagi tafovutlarini tahlil qilganimizda quyidagi holatlar kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaning moddiy ta'minoti – ($t=,667$; $p\leq 0,05$), bo'sh vaqtni tashkil etish – ($t=,420$; $p\leq 0,05$), oilada submadaniyat tashkilotchisi – ($t=-,428$; $p\leq 0,05$) ko'satgichlarda harbiy va harbiy bo'lmagan erkaklarda ishonchli farqlar kuzatilmadi. Farzandlarning tarbiyasi shkalasi ($t=2,198$; $p\leq 0,05$), oiladagi hissiy muhit ko'rsatkichi – ($t=1,932$; $p\leq 0,05$), oila begi va bekasi – ($t=1,916$; $p\leq 0,05$), jinsiy munosabatdagi sheriklik – ($t=2,121$; $p\leq 0,05$), kabi ko'satgichlarda harbiy va harbiy bo'lmagan erkaklarda ishonchli tafovutlar kuzatildi.

2-jadval

Harbiy oila vakillarining(n=196) «Oiladagi rollar: kutuvlar va da'volar» metodikasi shkalalari orasidagi aloqadorlik natijalari

Shkalalar	Jinsiy munosabatlar	Shaxsiy identifikatsiya	Uy ro'zg'or kutuvlar	Uy ro'zg'or da'volar	Ota-onalik tarbiyachilik kutuv	Ijtimoiy faollik da'volar
Shaxsiy identifikatsiya	,217*	1				
Uy ro'zg'or kutuvlar	-,319*	,051	1			
Uy ro'zg'or da'volar	-,082	,433*	-,083	1		
Ota-onalik tarbiyachilik kutuv	-,077	-,087	,257*	,312*	1	
Ota-onalik tarbiyachilik da'volar	-,047	,022	,373*	,301*	,043	,028
Ijtimoiy faollik kutuv.	,023	,045	-,346*	,029	,022	-,063
Hissiy psixoterapevt kutuv	,002	,125	,350*	-,045	,270*	,410*
Hissiy psixoterapevt da'volar	,558**	,319*	-,003	,107	,033	,137
Tashqi jozibadorlik kutuv	,381*	,232*	-,041	,138	-,002	,287*
Tashqi jozibadorlik davolar	,506**	,044	-,025	-,027	,041	,032

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$; *** $p\leq 0,001$

Nikoh munosabatlari tabiati ko'p hollarda er va xotinning oilaviy qadriyatlar va kim qaysi darajada u yoki bu majburiyatlar(rollar)ga javob berishini haqidagi tasavvurlariga bog'liq. Oiladagi qadriyatlar muvofiqligi, er-xotinlarning rolli ustanovkalari, oilaning saqlanishini ta'minlovchi motivlar, ular o'rtasidagi fikrlarning nomutanosibligiga olib keluvchi omillarni, ularning hamkorligini ifodalovchi holatlarga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. Ushbu jihatlariga aniqlik kiritish, oiladagi inqirozga olib keluvchi sabablarni yoritish maqsadida A.N.Volkovning «Oiladagi rollar: kutuvlar va da'volar» test-metodikasiga murojaat qildik. Oilaning barqarorligi, shaxslararo munosabatning maqsadga muvofiq kechishi uning a'zolari, xususan er-xotinlarning oilaviy qadriyatlarni qanday darajada kundalik turmushda namoyon qilishlariga bog'liq.

Tadqiqotda ilgari surilgan muammoni ko'p tomonlama o'rganish maqsadida harbiy oilalarda rollar taqsimotining shkalalarining o'zaro aloqadorligini ham tekshirdik. Shu sababdan «Oiladagi rollar: kutuvlar va da'volar» shkalalari o'rtasida korrelyatsiya munosabatini aniqlab, respondentlardan olingan umumiy ma'lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Korrelyatsion tahlilda ko'rinadiki, harbiy oila vakillari qarashlarida jinsiy munosabatlar – shaxsiy identifikatsiya ($r=,217$; $p\leq 0,05$), hissiy psixoterapevt da'volar ($r=,558$; $p\leq 0,01$), tashqi jozibadorlik kutuvlar ($r=,381$; $p\leq 0,05$) va tashqi jozibadorlik da'volar ($r=,506$; $p\leq 0,01$) bilan musbat aloqadorlikni tashkil etgan bo'lsa, uy-ro'zg'or kutuvlar ($r= -,319$; $p\leq 0,05$) bilan manfiy korrelyatsion bog'liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Mazkur natijalar harbiy oilalarda jinsiy munosabatlar turmush o'rtoqning qiziqish va ehtiyojlarni inobatga olib, o'zaro tushunish, hissiy qo'llab-quvvatlash yaxshi bo'lganida, turmush o'rtoqlar sheriklari uchun tashqi jozibadorligiga e'tiborli bo'lsalar ijobiy bo'lishi va aksincha, turmush o'rtoqlarning uy-ro'zg'or ishlarida kutuvlarining yuqori bo'lishi er-xotin munosabatlariga sovuqchilik tushurishi mumkinligini bildiradi.

Respondentlarning shaxsiy identifikatsiya ko'rsatkichlari – uy-ro'zg'or da'vo ($r=,433$; $p\leq 0,05$), hissiy psixoterapevt da'vo ($r=,319$; $p\leq 0,05$) va tashqi jozibadorlik da'volar ($r=,232$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bo'g'liqlik kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichlardan anglash mumkinki, harbiy oilada er va xotin hamfikir va hamjihat yashashlariga uy-ro'zg'or tutumida umumiy ehtiyojlarni inobatga olish, oila a'zolarining qo'llab-quvvatlash, himoya qilish va shaxsiy qulayliklarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tashqi imidjiga, gigiyenasiga e'tiborda bo'lishlari ta'sir qiladi.

Uy-ro'zg'or kutuvlari shkalasi – ota-ona tarbiyachilik kutuvlar ($r=,257$; $p\leq 0,05$) va ota-onalik tarbiyachilik da'volar ($r=,373$; $p\leq 0,05$), hissiy psixoterapevt kutuvlar ($r=,350$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli ijobiy korrelyatsion bo'g'liqligiga ega, ijtimoiy faollik kutuv ($r= -,346$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli teskari korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, oilada uy-ro'zg'or ishlari farzandlar soni va yoshiga, tarbiyasi va qaroviga qarab o'zgarishi, xo'jalik-maishiy vazifalar taqsimotida o'zaro tushunish, ko'maklashish talab etadi. Uy-ro'zg'or ishlariga ahamiyatli ko'p vaqt ajratish, ijtimoiy faol bo'lishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Uy-ro'zg'or da'volar – ota-ona tarbiyachilik kutuv ($r=,312$; $p\leq 0,05$) hamda ota-ona tarbiyachilik da'vo ($r=,301$; $p\leq 0,05$) bilan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi qayd etildi. Bundan ko'rinadi-ki, turmush o'rtoqlar uy-ro'zg'or ishlarida o'zining faol ishtiroki ota-ona tarbiyachilik vazifalarda ham muvaffaqiyatli bajarayotganini ko'rsatadi va turmush o'rtog'idan ham shunday jonkuyarlik bilan yondoshishlarini istashini bildiradi. Ota-ona tarbiyachilik kutuvining hissiy psixoterapevtik kutuv ($r=,301$; $p\leq 0,05$) bilan musbat aloqadorlikni tashkil etilishi, ota-ona tarbiyachilik vazifasini bajarayotganda hissiy yondoshish, harbiylar oilasida avtoritar munosabat ustunligini inobatga olib, farzand bilan munosabatda hushfellik, bo'sh vaqtni tashkillashda farzandlarga ko'proq g'amxo'rlik qilishlarini istashlari ko'rinadi.

